

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YULDASHEVA DILOROM SHAXZOD QIZI

RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH (BANK XIZMATLARI BOZORI MISOLIDA)

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
economics sciences**

Yuldasheva Dilorom Shaxzod qizi

Raqamli marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish (Bank xizmatlari bozori misolida)..... 3

Юлдашева Дилором Шахзод кизи

Повышение эффективности использования инструментов цифрового маркетинга (на примере рынка банковских услуг)..... 27

Yuldasheva Dilorom Shakhzod kizi

Improving the use of digital marketing tools (on the example of the banking services market)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YULDASHEVA DILOROM SHAXZOD QIZI

RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH (BANK XIZMATLARI BOZORI MISOLIDA)

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B20235.1.PhD/Iqt5171 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Tashmuradova Buvsara Egamovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: **Ikramov Murat Akramovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mamurov Samadjon Igamnazarovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "_____" soat _____
dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov
ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.; e-mail: tsue@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "_____" kuni tarqatildi.
(2025 yil "_____" _____
dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.D. DJurabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.A. Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi global iqtisodiyotda bank xizmatlari bozorining rivojlanishi marketing strategiyalarining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq. Mijozlarni jalb qilish va saqlab qolish uchun innovatsion yondashuvlar talab etiladi, chunki an‘anaviy marketing vositalari jadal o‘zgarib borayotgan raqamli muhitda samarali bo‘lmazligi mumkin. Amerikaning eng yirik banklaridan biri bo‘lgan JP Morgan Chasening bergan hisobotiga ko‘ra 2024-yil davomida mijozlarning talab va xohishlarini o‘rganishda katta ma‘lumotlar va sun‘iy intellektdan keng foydalangan. Ular mijozlarning karta tranzaksiyalari, onlayn faoliyati va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatlarini tahlil qilib shaxsiylashtirish takliflari berilgan. Ushbu zamonaviy usullar orqali bank marketing xarajatlarini 20 %ga kamaytirishga va mijozlar sadoqatini oshirishga erishilgan¹. Shu bois, raqamli marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish, xususan, bank xizmatlari bozorida ularni tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda globallashuv va shiddatli raqamlashtirish siyosati strategik ahamiyatni kasb etayotgan bir sharoitda hozirgi kunda xizmatlar bozorini raqamli marketing vositalaridan foydalanish asosida rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada bank xizmatlari bozorida raqamli marketing konsepsiyasini joriy etishga qaratilgan tizimli ilmiy izlanishlar olib borish, aholini sifatli raqamli moliyaviy xizmatlar bilan ta‘minlash, iste‘molchilarning iqtisodiy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash va bank xizmatlari bozorida raqamli marketing faoliyatini yo‘lga qo‘yish nuqtayi nazaridan tadqiq etish zaruratini ilgari surmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi bank xizmatlari bozorini rivojlantirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada raqamlashtirish masalasiga tegishli 30 dan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, iqtisodiyotning barcha sohaları bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab berilmoqda². “So‘nggi yillarda raqamli moliyaviy xizmatlarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining ortib borishi natijasida millionlab mijozlarga xavfsiz raqamli platformalardan rasmiy raqamli moliyaviy operatsiyalarga o‘tishda yordam berib kelinmoqda”³. Shu sababdan ham bank xizmatlarini takomillashtirishda inson omilini kamaytirish, modernizatsiyalash, banklarning zamonaviy raqamlashtirilgan infratuzlmasini joriy etish, masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish tizimini rivojlantirish maqsadida raqamli texnologiyalar asosida ilg‘or bank xizmatlari turlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni, 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish

¹ J.P. Morgan Research Publications

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ–3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – <https://lex.uz/ru/docs/386053>

³ https://trustbank.uz/uz/press_center/news/raqamli-moliyaviy-xizmatlar-bank-va-mijozlar-o-rtasidagi-o-zaro-munosabatlarning-yangi-shakli

chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida raqamli marketing vositalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy jihatlarini ko'plab xorijlik marketolog olimlarning ilmiy ishlanmalarida o'z aksini topgan. Bu borada F.Kotler, Y.Chien, G.Sharma, S.Malhotra, S.Jain, P.Garg, B.Fan, P.Honnali, M.Carpenter, C.Gerling, S.Lessmann, H.Liu, V.Shankar, Y.Kim, G.Tan, W.Lim, A.Smith, D.Chaffey, J.Lee, R.Bansal, P.Verma va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan⁴.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari, xususan A.Shevlyakova, I.Kotlyarevskaya, N.Ananenka, D.Taraxovich, M.Samoxovets, I.Soloveychik, S.Lobanova, M.Guseynova va boshqalarning asarlarida raqamli marketing strategiyalari, bank marketingi va uning tamoyillari aks etgan⁵.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotning raqamlashtirish siyosati doirasida raqamli marketingdan xizmat ko'rsatish sohalari, xususan, bank xizmatlari bozorida

⁴ Kotler, P., & Chien, Y. (2023). "Emerging Marketing Strategies for Post-Pandemic Recovery in the Banking Sector". *Journal of Bank Marketing*, 40(2), 76-88.; Malhotra, S., & Sharma, G. (2023). "Impact of Mobile Banking Apps on Marketing Strategies in Banks". *International Journal of Mobile Marketing*, 6(1), 28-39.; Jain, S., & Garg, P. (2023). "AI-Driven Marketing Campaigns in Banks: A Case Study Approach". *Journal of Marketing Research and Applications*, 13(4), 123-132.; Fan, B. (2023). Research on the Marketing Strategy of Banking and Finance Business Given Big Data Technology. *SHS Web of Conferences*, 135, 02018.; Honnali, P. (2018). Relevance of Effective Marketing Strategies in the Banking Sector. *International Journal of Advance and Innovative Research*, 5(4), 371-373.; Carpenter, M. (2011). The Marketing Strategies of Banks to Small Businesses in the Republic of Ireland. Dublin City University.; Gerling, C., & Lessmann, S. (2024). Leveraging AI and NLP for Bank Marketing: A Systematic Review and Gap Analysis. *arXiv preprint arXiv:2411.14463*.; Liu, H., & Shankar, V. (2021). "The Impact of Digital Marketing Strategies on Bank Performance: Evidence from the United States". *Journal of Financial Services Marketing*, 26(3), 123-137.; Kim, Y., (2020). "Social Media Marketing and Customer Engagement in the Banking Industry: Evidence from South Korea". *International Journal of Bank Marketing*, 38(5), 1023-1040.; Tan, G., & Lim, W. (2019). "Mobile Banking Adoption and Customer Loyalty: A Study of Singapore Banks". *Journal of Financial Services Marketing*, 24(4), 245-258.; Smith, A., & Chaffey, D. (2020). "E-Marketing Strategies for Financial Institutions in the USA". *International Journal of Electronic Marketing and Retailing*, 11(3), 215-230.; Lee, J. (2020). "Big Data Analytics in Banking: Opportunities and Challenges". *International Journal of Information Management*, 50, 1-12.; Bansal, R., & Verma, P. (2023). "Behavioral Targeting in Bank Marketing: A New Approach to Consumer Retention". *Journal of Behavioral Marketing*, 10(1), 44-53.

⁵ Котляревская, И.В. Стратегический маркетинг: учебное пособие. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2020. — 159, [1] с. Шевлякова А.А «Особенности реализации стратегии развития в банковской сфере» Журнал: Вестник Кемеровского государственного университета. (2019) стр. 271–276.; Ананенко Н., Тарахович Д. «Страхование в банковской деятельности: современное состояние и перспективы развития» Журнал: Банковская система: устойчивость и перспективы развития (2024) стр 403–416.; Самоховец М.П. «Финансовая платформа как новая модель предоставления финансовых услуг». Журнал: Стратегия развития экономики Беларуси: вызовы, инструменты реализации и перспективы (2021) стр 461–465.; Соловейчик И., «Маркетинговые инновации как средство совершенствования банковских услуг» Экономический вектор №2(25) 2021 стр.111-117.; Лобанова С.Н. Зарубежный опыт использования маркетинга в банковской сфере // Вестник РГГУ. Серия «Экономика. Управление. Право». 2023. № 2. С. 85–101. Гусейнова М.Р «Маркетинг услуг в сфере банковской деятельности» магистрская диссертация БАКУ 2016.

foydalanish masalalari O'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan S.Gulyamov, B.Begalov, M.Abdullayev, Y.Ilxamova, M.Ikramov, M.Jumaniyozova, U.Xaitmatov, A.Fattaxov, Sh.Ergashxodjayeva, A.Azlarova, M.Abduraxmanova, Sh.Djanibekova, B.Xonturayev, N.Yaxyoxonov, G.Bekmurodova, J.Yuldashev, O.Ortiqov, I.Qulliyeu va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁶.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda raqamli marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- raqamli marketing tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;
- raqamli marketing vositalari turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari;
- xorijiy mamlakatlarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish tajribalari;
- O'zbekistonda raqamli marketing vositalaridan foydalanish holatini tahlili;
- raqamli marketing vositalari orqali bank xizmatlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash;
- raqamli marketing vositalaridan foydalanish holatini sotsiologik baholash;
- raqamli marketing vositalarini bank xizmatlari bozorida qo'llash yo'nalishlari;
- raqamli marketing vositalaridan innovatsion yondashuvlar asosida bank tizimida foydalanish imkoniyatlari;
- raqamli marketing vositalari orqali bank xizmatlarini rivojlanishini ko'p omilli prognozlashni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida marketing faoliyatini o'rganish uchun "O'zmilliybank" AJ, "Asakabank" ATB va "Ipak Yo'li" ATIB banklari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli marketing vositalaridan foydalanish jarayonida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada statistik kuzatish, tanlanma to'plam, qiyosiy va dinamik tahlil, SWOT tahlili, so'rov usuli, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan

⁶ С.Гулямов, А.Шермухамедов. Развитие цифровой экономики в Узбекистане//Круглый стол, 2019,-С,122-124.; Фаттахов А..А. Стратегия маркетинга в оптовой торговле и пути повышения ее эффективности. Монография.-Т.: Fan, 2005.179 с. Ergashxodjayeva Sh.D. Innovatsion marketing. Darslik. –Т.: IQTISODIYOT, 2019. 192 bet.; B.A.Begalov, M.K.Abdullayev. "Raqamli iqtisodiyot" / Darslik. – Т.: "Iqtisodiyot", 2023.-352 b. S.S.Gulyamov, Y.S.Ilxamova, M.M.Ikramov, M.Y.Jumaniyozova, U.T.Xaitmatov. Iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalari (o'quv qo'llanma) -Т.: ООО "Diadema nur servis", 2024. 356 b. A.A.Azlarova, M.M.Abduraxmanova. "Bank marketing va menejmenti" o'quv qo'llanma.- Т: IQTISODIYOT, 2019.-199b.; Djanibekova Sh.K. "Xizmatlar bozorini rivojlantirishda marketing strategiyasining xususiyatlari". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2018-yil.; Xonturayev B.A. "Bank xizmatlari bozorini raqamli marketing strategiyalari asosida rivojlantirish" PhD dissertatsiya.-T:2023.; Yaxyoxonov N.B "Korxonalarda raqamli marketingdan foydalanishni takomillashtirish" PhD dissertatsiya. -S:2023.; Bekmurodova G.A. Tijorat banklari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalari samaradorligini oshirish yo'llari, Avtoreferat 2023.; Yuldashev J.A. Tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlar holatini baholash usulini takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. -№3, 2021.; Ortiqov O.A., Qulliyeu I.Ya. Bank menejmenti va marketingi. O'quv qo'llanma.: Т. "Iqtisod-moliya". –2015 y.178 b.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "zamonaviy marketing strategiyalari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bozordagi raqobat ustunligini ta'minlash, iste'molchilar bilan emotsional va interaktiv aloqalarni shakllantirish, innovatsion va moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkonini beradigan, natijadorlik va mijozlar qiymatini maksimallashtirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurti menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Marketing (2-modul "Brand management" fani asosida)" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan;

bank xizmatlari bozorida mijozlar xatti-harakati va ehtiyojlarini tahlil qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari asosida maqsadli segmentlashning intellektual klasterlash modeli orqali bank mijozlarini profillashtirish aniqligini oshirish chegarasi ($35 \leq \text{PABM} \leq 40 \%$) asoslangan;

ommaviy personallashtirish usulini raqamli marketingni joriy etish orqali mijozlar bilan interaktiv va emotsional aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini beradigan innovatsion yondashuvga ko'ra bank xizmatlaridan foydalanish darajasini 15-18 %ga qadar oshirish taklifi asoslangan;

tijorat banklarida raqamli marketingdan samarali foydalanish natijasida bankning kreditlari, depozitlari va foyda ko'rsatkichlarini modellashtirish asosida "O'zmilliybank" asosiy faoliyatining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Mazkur prognoz ko'rsatkichlaridan "O'zmilliybank" AJda strategik rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarida raqamli marketing vositalari asosida mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan va baholangan;

bank xizmatlari iste'molchilari ehtiyojlari, demografik va psixografik xususiyatlari asosida segmentlashtirish orqali individual marketing yondashuvlarini joriy etish bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqilgan;

Singapur, AQSh, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlar bank sohasida qo'llanilayotgan ilg'or marketing strategiyalari tahlil qilinib, O'zbekiston bank sektoriga moslashtirish imkoniyatlari ishlab chiqilgan;

tijorat banklari xizmatlari uchun omnichannel marketing, biznes mijozlar uchun kontent-marketing va yosh avlod uchun interaktiv platformalar orqali reklama vositalari tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, shuningdek, tashkilotlarning ochiq statistik hisobotlaridan olingani, xulosa va takliflarning "O'zmilliybank" AJ tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosalar raqamli marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan

izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalar bank tizimini isloh qilish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish, shuningdek, bank xizmatlari bozori ommabopligini oshirish, aholining pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash bo'yicha qabul qilinadigan qonun va qonunosti hujjatlari, mamlakat Prezidentining farmonlar, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:

uslubiy yondashuvga ko'ra "zamonaviy marketing strategiyalari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bozordagi raqobat ustunligini ta'minlash, iste'molchilar bilan emotsional va interaktiv aloqalarni shakllantirish, innovatsion va moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkonini beradigan, natijadorlik va mijozlar qiymatini maksimallashtirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurti menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Marketing (2-modul "Brand management" fani asosida)" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda raqamli texnologiyalar, iste'molchilarning xulq-atvori va bozor talablariga asoslangan marketing usullarini o'zida mujassam etuvchi, raqamli ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish haqida aniq strategiyalardan foydalanish natijasida zamonaviy marketing strategiyalari tushunchasi to'g'risida yanada kengroq bilim va ko'nikmalar shakllantirish imkoni yaratilgan;

bank xizmatlari bozorida mijozlar xatti-harakati va ehtiyojlarini tahlil qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari asosida maqsadli segmentlashning intellektual klasterlash modeli orqali bank mijozlarini profillashtirish aniqligini oshirish chegarasi ($35 \leq \text{PABM} \leq 40 \%$) asoslangan (O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki AJ 2025 yil 8 sentabrdagi № 26/1-825 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zmilliybank" AJning marketing xizmatlaridan foydalanish samaradorligini 17,4 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

ommaviy personallashtirish usulini raqamli marketingni joriy etish orqali mijozlar bilan interaktiv va emotsional aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini beradigan innovatsion yondashuvga ko'ra bank xizmatlaridan foydalanish darajasini 15-18 %ga qadar oshirish taklifi asoslangan (O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki AJ 2025 yil 8 sentabrdagi № 26/1-825 sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zmilliybank" AJda mijozlar oqimini 10,2 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklarida raqamli marketingdan samarali foydalanish natijasida bankning kreditlari, depozitlari va foyda ko'rsatkichlarini modellashtirish asosida "O'zmilliybank" AJning asosiy faoliyatini 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki AJ 2025-yil 12-fevraldagi № 261-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz

ko'rsatkichlaridan "O'zmilliybank" AJda strategik rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy va 3 ta respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida 6 ta tezislarni nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan. Ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan va olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Raqamli marketing vositalarining ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida Raqamli marketing tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, raqamli marketing vositalari turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, xorijiy mamlakatlarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish tajribalari tadqiq qilinib, tadqiqotda belgilangan vazifalar doirasida nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Raqamli marketing vositalarining evolyutsiyasi yil davomida o'zgarib, raqamli marketing sohasida yangiliklar va texnologiyalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Quyidagi rasmda yillar kesimida raqamli marketing vositalarining qanday o'zgarishlarini va rivojlanishini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Raqamli marketing vositalarining rivojlanish evolyutsiyasi⁷

⁷ Muallif ishlanmasi.

Raqamli marketing vositalari texnologiyalar rivojlanishi bilan doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. 1990-yillardan 2020-yillargacha bo'lgan davrda SEO, PPC, ijtimoiy media va mobil marketing kabi vositalar keng tarqalgan bo'lsa, 2025-yillarda yangi texnologiyalar, masalan, Web 3 va blockchain texnologiyalari marketingni yangicha yo'nalishlarga olib chiqishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar ko'pgina ilmiy ishlar ustida izlanishlar olib borilishiga keng yo'l ochib beryapti. Ilmiy adabiyotlarda va elektron manbaalarda raqamli marketingga turli ta'riflar berilgan bo'lib, bu esa ushbu tushunchalarni tizimlashtirish va ularni tartibga solishni talab qiladi. Quyidagi jadval raqamli marketingga berilgan ta'riflarni mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Raqamli marketingga berilgan ta'riflar⁸

№	Nomi	Mazmuni
1.	Philip Kotler, Gary Armstrong ⁹	Raqamli marketing – bu internet va boshqa raqamli texnologiyalar yordamida mijozlar bilan aloqada bo'lish va ularni jalb qilish strategiyalarining yig'indisidir
2.	Dave Chaffey ¹⁰	Raqamli marketing – bu marketing faoliyatlarining raqamli kanallar orqali amalga oshiriladigan kompleks jarayonidir
3.	Ryan Deiss, Russ Henneberry ¹¹	Raqamli marketing – bu onlayn va raqamli vositalar yordamida marketing strategiyalarini amalga oshirish jarayonidir. U mijozlarni jalb qilish, ularni mahsulot yoki xizmatlarga qiziqtirish va ularning xarid qilish qarorlarini rag'batlantirishga qaratilgan
4.	Jeff Larson, Stuart Draper ¹²	Raqamli marketing – bu texnologik innovatsiyalar va raqamli vositalar yordamida mijozlar bilan aloqalar o'rnatish va o'zaro muloqotni davom ettirish jarayonidir
5.	Sodiqov S ¹³	Raqamli marketing – bu yangi texnologiyalar va raqamli vositalar orqali mijozlar bilan aloqalar o'rnatish, brendni yaratish va mahsulotlarni taklif etish jarayonidir
6.	Toshkuziyev M ¹⁴	Raqamli marketing, asosan, onlayn platformalar orqali tovar va xizmatlarni reklama qilish va sotish jarayoni sifatida ko'rsatiladi
7.	Raximov U ¹⁵	Raqamli marketing – bu marketing faoliyatlarining raqamli kanallar orqali amalga oshiriladigan jarayonidir
8.	Xodjayev A ¹⁶	Raqamli marketing – bu marketingning raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan yangi shaklidir
9.	Ergashev B ¹⁷	Raqamli marketing – bu ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli vositalar yordamida marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonidir

⁸ Muallif ishlanmasi.

⁹ Kotler, P., Armstrong, G. (2019). *Principles of Marketing* (17th edition). Pearson Education.

¹⁰ Chaffey, D. (2015). *Digital Marketing: Strategy, Implementation, and Practice* (6th edition). Pearson Education.

¹¹ Deiss, R., Henneberry, R. (2017). *Digital Marketing for Dummies* (2nd edition). Wiley.

¹² Larson, J., Draper, S. (2015). *Digital Marketing*. McGraw-Hill Education.

¹³ Sodiqov S. (2019). *Raqamli Marketing: Nazariy Asoslar va Amaliyot*.

¹⁴ Toshkuziev, M. (2017). *Raqamli Marketing: Iqtisodiy Asoslar va Rivojlanish*.

¹⁵ Raximov U. (2020). *Raqamli Marketing va Shaxsiylashtirish*

¹⁶ Xodjayev A. (2021). *Raqamli Marketing: Asoslar va Innovatsiyalar*

¹⁷ Ergashev B. (2022). *Raqamli Marketing va Ijtimoiy Media*.

Shuningdek, o‘zbek olimlari tomonidan raqamli marketing strategiyasi ko‘plab o‘zgaruvchan va yangilanib boradigan jarayon sifatida ta’riflanadi. U maqsadli iste’molchilarni qiziqtirish, onlayn marketing imkoniyatlarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar integratsiyasini ta’minlash, shuningdek, kontent marketingining ustuvor o‘rnini belgilab beradi. Bu strategiyalar O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning samarali va innovatsion usulini taqdim etadi.

Muallif fikriga ko‘ra “zamonaviy marketing strategiyalari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni bozordagi raqobat ustunligini ta’minlash, iste’molchilar bilan emotsional va interaktiv aloqalarni shakllantirish, innovatsion va moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkonini beradigan, natijadorlik va mijozlar qiymatini maksimallashtirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv asosida takomillashtirilgan samarali marketing strategiyasidir¹⁸.

Raqamli marketing an’anaviy marketingdan farq qilib, o‘z ichiga marketing kanallari va vositalarini qamrab oladi (2-jadval).

2-jadval

An’anaviy va raqamli marketing vositalarining turlari¹⁹

An’anaviy marketing vositalari	Raqamli marketing vositalari
TV	Qidiruv tizimi marketingi (Search engine marketing - SEM)
Tashqi reklamalar (bilbord va plakatlari)	Qidiruv tizimi optimizatsiyasi (Search engine optimization - SEO)
Gazeta va jurnallar	Ijtimoiy media marketingi (Social media marketing - SMM)
Flayerlar va broshyuralar	E-mail marketing
Pochta reklamalari	Kontent marketing
Telefon reklamalari	Omnichannel (multikanallik)
Radio	Influencer marketing
Tadbirlar va homiyliklar	Chatbotlar va Sun’iy Intellect (AI)
Namoyishlar	Online PR (Onlayn Jamoatchilik bilan Aloqa)
	Web 3 va Blockchain texnologiyalari

Raqamli marketing kanallari interaktiv ekranlar, smartfonlar, aqlli qurilmalar, web saytlar va bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, o‘z-o‘ziga xizmat krsatish terminallari, QR kodlar, videohostinglar, videokameralarni o‘z ichiga olsa, an’anaviy marketing kanallari telivideniye, radio, pochta kabi an’anaviy kanallarni o‘z ichiga oladi. F.Kottlarning ta’kidlashicha, iste’molchilar nafaqat funksional, balki hissiy ehtiyojlarini ham qondirishga harakat qilishni xohlaydi. Iste’molchining bunday o‘zini o‘zi idrok etishining asosi, zamonaviy axborot texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ma’lumotlarni uzatish mobil qurilmalari, axborot xizmatlariga asoslangan odamlarning jamoaviy o‘zaro munosabatlarining yangi shakllari bilan qamrab olinadi²⁰. Shu bilan birga zamonaviy marketing tushunchasiga ham

¹⁸ D.Sh.Yuldasheva Marketing (2nd module “Brand management”) tutorial– Tashkent: 2024 year, 130 pages.

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

²⁰ F.Kotler, Marketing 3.0. ot produktov k potrebitelyam i dalee-k chelovecheskoy dushe/F.Kotler, X.Kartadjayya, A.Setiavan; per s angl. A.Zayakina. –M.: Alpina biznes Buks, 2012. – 240 s

“Zamonaviy marketing – iste’molchilarni xohish va muhtojliklarini aniqlashdan boshlanib, ushbu korxona qaysi maqsadli bozorlarga samarali xizmat ko‘rsatib va ajoyib qiymatni taklif etib, ular asosan korxona maqsadli iste’molchilarini egallab hamda ushlab qolib, shuningdek, sonini ko‘paytirishga erishish bo‘yicha qaror qabul qilishdir²¹”, deb ta’rif berilgan.

Bizning fikrimizcha, bank-moliya xizmatlari bozorida raqamli marketing vositalaridan qidiruv tizimi marketingi (SEM), qidiruv tizimi optimizatsiyasi (SEO), ijtimoiy media marketingi (SMM), e-mail marketing, kontent marketing, omnichannel (multikanallik), influencer marketing, chatbotlar va sun‘iy intellekt (AI), online PR, Web 3 va Blockchain texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Bank marketingining zamonaviy konsepsiyasi doimiy o‘zgaruvchan moliyaviy muhitda raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun banklar tomonidan qabul qilingan strategik yondashuvdir²². Ushbu konsepsiya bank xizmatlari va jarayonlarini “ajratish”, shuningdek, integratsiyalashgan bank modelini “dekonstruksiya qilish”ni o‘z ichiga oladi. Ushbu yangi strategik fikrlashni qo‘llash orqali banklar o‘z mijozlarining o‘zgaruvchan ehtiyojlari va afzalliklarini samarali qondirishlari mumkin.

Bank tizimida raqamli marketing vositalaridan foydalanish mijozlar bilan samarali munosabatlar o‘rnatish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlarning tajribasi bu jarayonda qimmatli manba bo‘lib, o‘zining ilg‘or usullari va muvaffaqiyatli natijalari bilan namuna bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot ishimizda keltirildan AQSh, Janubiy Koreya va Singapur davlat banklari raqamli marketing strategiyalarini joriy etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishi mamlakatimiz tijorat banklari uchun tajriba sifatida xizmat qiladi. AQShning JP Morgan Chase, Wells Fargo kabi banklar raqamli marketing, personalizatsiya va mijozlar tajribasiga katta e’tibor qaratadi.

Bank tizimida zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. AQSh, Janubiy Koreya va Singapur davlatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing, shaxsiylashtirish va mijozlar tajribasini yaxshilash orqali banklar sezilarli natijalarga erishmoqda.

Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or texnologiyalari va innovatsion yondashuvlari bank xizmatlarini raqamli platformalar orqali kengaytirish, mijozlarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish va tezkor xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Shuningdek, shaxsiylashtirish va raqamli marketing strategiyalari mijozlar bilan yanada yaqinroq aloqalar o‘rnatishga yordam beradi, bu esa ularning sadoqatini oshiradi. O‘zbekiston bank tizimi ham ushbu tajribadan foydalanib, zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi va mijozlar bilan samarali munosabatlar o‘rnatishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu jarayonda raqamli marketingga investitsiya qilish, mijozlarning individual ehtiyojlariga e’tibor


²¹ “Marketing asoslari”. Sh.Dj.Ergashxodjayeva, M.A.Yusupov, S.B.G‘oyipnazarov, I.B.Sharipov -Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. -244 b.

²² Keskar, M Y., & Pandey, N. (2018, May 29). Internet banking: a review (2002–2016). Taylor & Francis. <https://doi.org/10.1080/15332861.2018.1451969>

qaratish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Raqamli marketing vositalaridan foydalanish holatini tahlil qilish va baholash”** belgilab olingan bo‘lib, asosiy e’tibor O‘zbekistonda raqamli marketing vositalaridan foydalanish holatini tahlili va raqamli marketing vositalari orqali bank xizmatlari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni baholashga qaratilgan.

O‘zbekistondagi tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bank sektori rivojlanib borar ekan, banklar mijozlarni jalb qilish va ushlab turish, ularning bozordagi ishtirokini kuchaytirish va raqobatchilardan ajralib turish uchun turli marketing strategiyalaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyoti bozorni liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va bank sektorini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar tufayli barqaror o‘sib bormoqda. Banklar mijozlar bilan muloqot qilish, mahsulotlarni reklama qilish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun Facebook, Instagram va Telegram kabi ijtimoiy media platformalaridan faol foydalanib kelmoqda (2-rasm).



2-rasm. Toshkent shahrida xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar tomonidan foydalanilayotgan raqamli marketing kanallari (2024-yil holatiga ko‘ra)²³

Toshkent shahrida xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar tomonidan foydalanilayotgan raqamli marketing kanallari bo‘yicha 2024-yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, Instagram platformasi eng mashhur bo‘lib, ko‘plab tadbirkorlar va xizmat ko‘rsatuvchilar uchun asosiy reklama vositasi hisoblanadi va 40 % foydalanuvchilar ushbu platformadan ish faoliyatlari davomida foydalanadilar. Qidiruv tizimlari reklamalari orasida Google Ads yetakchi bo‘lib, 50% subyektlar undan foydalanmoqda. Google Ads orqali maqsadli auditoriyaga yetib borish

²³ Muallif ishlanmasi.

imkoniyati yuqori bo'lgani uchun keng qo'llanilmoqda. Facebook platformasi ko'proq kattaroq auditoriyani jalb qilish uchun ishlatiladi va 25 % subyektlar tomonidan foydalaniladi. Yosh avlodni jalb qilish uchun TikTok'da 20 % subyektlar video kontent ishlab chiqmoqda. Professional xizmat ko'rsatuvchilar, B2B kompaniyalar LinkedIn orqali biznes aloqalarini mustahkamlash va professional tarmoqni rivojlantirish maqsadida foydalanadi. Ushbu platformadan 10 % subyektlar foydalanmoqda. Bundan tashqari E-mail Marketing, Video Marketing, Mahalliy va Onlayn OAV kabi kanallar ham samarali foyda keltirmoqda.

3-jadval

Tijorat banklarining raqamli marketing kanallaridan (ijtimoiy tarmoq) foydalanishi bo'yicha eng yaxshi 8 ta banki, (2024-yil iyul oyi holatiga ko'ra)²⁴

№	Tijorat banklar	Instagramda obunachilar soni	Instagramda xabarlar soni	Telegramda obunachilar soni	Telegramda xabarlar soni
1.	Orient Finans	161 000	1706	16 234	2234 rasm/ 350 video
2.	Ipak yo'li banki	39 000	1611	15 964	950 rasm/ 163 video
3.	Kapitalbank	66 400	958	19 192	839 rasm/ 82 video
4.	O'zmilliybank	22 700	1188	16 234	2234 rasm/ 350 video
5.	Agrobank	27 000	564	44 258	893 rasm/ 184 video
6.	Ipoteka bank	30 400	1087	45 739	2530 rasm/ 244 video
7.	Turonbank	19 200	1112	7 852	1111 rasm/ 691 video
8.	Asakabank	55 100	976	15 990	2029 rasm/ 186 video


Yuqoridagi 3-jadvalda ko'rishimiz mumkinki, hozirgi kunda tijorat banklari faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib borayotgan obunachilar soni ortib bormoqda. Obunachilar soni bo'yicha Orient Finans bank boshqa banklarga nisbatan Instagram platformasida peshqadamlik qilmoqda. Telegram sahifasda esa Ipoteka bank va Agrobank nisbatan ko'proq obunachilarga masofaviy xizmat ko'rsatishda davom etmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra banklar ijtimoiy tarmoqlarda uzluksiz foto, video, audio va boshqa turli xildagi axborotlarni ulashishda davom etmoqda. Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, tijorat banklari tomonidan joylanayotgan har bir xabar sifatililigi muhim rol o'ynaydi. Tijorat banklari tomonidan taqdim qilinayotgan raqamlashtirilgan bank operatsiyalari, masofaviy xizmatlar, mobil banking ilovalari va boshqa turli xildagi xizmatlar taqdim qilish bo'yicha faollik qilishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020–2024 yillardagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlari hajmi izchil o'sib borgan. 2020-yilda umumiy xizmat hajmi 200 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu

²⁴ Ijtimoiy tarmoq kuzatuvlari asosida muallif ishlanmasi.

ko'rsatkich 2023-yilga kelib 280 mlrd so'mga yetgan. Kredit hajmi ham shunga mos ravishda 150 mlrd so'mdan 210 mlrd so'mga oshgan. Depozitlar hajmi esa 50 mlrd so'mdan 70 mlrd so'mga ko'tarilgan. Yillik o'sish sur'ati esa 2020- va 2021-yillarda 10 % bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 13,6 %ga ko'tarilgan va 2023-yilda 12 %ni tashkil qilgan. Kredit portfeli 2024-yil yakuni bo'yicha 533,12 trln so'mga yetib, oldingi yilga nisbatan 13% ga oshgan. Bu ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekiston bank sektorining barqaror rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida bank xizmatlari hajmi so'nggi yillarda sezilarli tarzda oshganini guvohi bo'lamiz. Xususan, tijorat banklaridagi umumiy xizmatlar hajmi, kredit hajmi, depozitlar va boshqa bank xizmatlari hajmining keskin ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida bank xizmatlari hajmi (2016-2024-yillar, mlrd so'mda)²⁵

Yuqoridagi 3-rasmda 2016-yildan 2024-yilgacha O'zbekiston Respublikasida aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlari hajmi va o'sish sur'ati tasvirlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra umumiy xizmat hajmi 2016-yilda 100mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 310 mlrd so'mga yetgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, kredit hajmi 2016-yilda 75 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 235 mlrd so'mga, 3 barobardan ko'proq oshganini ko'rishimiz mumkin. Depozitlar hajmi 2016-yilda 25 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 75 mlrd so'mga yetgan. Yillik o'sish sur'ati 2016-yilda 10 % bo'lganini ta'kidlasak, 2018- va 2019-yillarda ancha yuqori bo'lib, 2020-yildan 2024-yilgacha yana 10-13 % oralig'ida izchil bo'lib qolgan. Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda bank xizmatlari hajmi, kreditlar hajmi va depozitlar hajmi izchil ravishda oshib boryapti. Har yili o'sish sur'ati bir oz o'zgarib

²⁵ <https://cbu.uz/en/statistics/>

turgan bo'lsa-da, umumiy trend doimiy o'sishni ko'rsatmoqda. Bu O'zbekistonning bank sektori rivojlanayotganligini va aholining bank xizmatlariga bo'lgan talabi oshayotganligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda, hozirgda bank xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish maqsadida an'anaviy marketing strategiyalaridan tashqari zamonaviy yondashuvlarga asoslangan marketing strategiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu mijozlar oqimining ko'payishi va banklar tushumining keskin oshishiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy marketing strategiyasi bu an'anaviy marketing yondashuvlaridan farqli ravishda, raqamli texnologiyalar, iste'molchilarning xulq-atvori va bozor talablariga asoslangan marketing usullarini o'zida mujassam etuvchi, raqamli ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish va moslashuvchan yondashuv tamoyillariga asoslangan samarali marketing strategiyasidir²⁶. Zamonaviy marketing strategiyasi doimiy ravishda o'zgaruvchan va rivojlanayotgan bozor sharoitlariga moslashishni talab qiladi. Yangi texnologiyalarni va tendensiyalarni kuzatib borish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va mijozlar bilan doimiy aloqada bo'lish zamonaviy marketingning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarida bank xizmatlar darajasi hamda marketing xizmatlarini darajasini aniqlash maqsadida so'rovnoma tashkil qilindi. So'rovnoma 15 ta savoldan iborat. Savollar xalqaro tajribalarni hisobga olib bank xizmatlarida marketing xizmatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. So'rovnomada 176 ta respondent qatnashib, uning representativligi ham inobatga olindi.

Bank mijozlarining bank xizmatidan foydalanishiga asosiy sabablari foiz stavkalari, mahsulot xizmatlari (masalan, mobil banking, kredit imkoniyatlari), marketing va reklama, mijzolarga xizmat ko'rsatish hamda bankning obro' va ishonchliligini o'z ichiga oladi.

4-jadval

So'rovnomada qatnashgan respondentlarning bank xizmatlarini tanlashiga ta'sir etuvchi omillar (2025 yil holatiga ko'ra)²⁷

Bank mahsulotlarini tanlashingizga qaysi omillar ko'proq ta'sir qiladi?	Jinsingiz		
	Ayol	Erkak	Umumiy
Foiz stavkalari va to'lovlar	30	47	77
Mahsulot xususiyatlari (masalan, mobil banking, kredit imkoniyatlari)	11	16	27
Marketing va reklama	3	6	9
Mijozlarga xizmat ko'rsatish	25	25	50
Obro' va ishonchlilik	8	5	13
Total	77	99	176

Moliyaviy bozorda shakllanadigan talab va taklif kesishmasi ikki tomon ham o'z foydalarini maksimallashtirishdan kelib chiqadi. Bank va mijoz uchun har

²⁶ D.Sh.Yuldasheva Marketing (2nd module "Brand management") tutorial– Tashkent: 2024 year, 130 pages.

²⁷ To'plangan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

qanday holda foyda olish foiz stavkadan kelib chiqadi, shuning uchun bank xizmatlarini tanlashda eng muhim omil bu foiz stavka hisoblanadi, so'rovnoma natijasi ham mazkur gipotezani tasdiqlamoqda.

So'rovnomada qatnashgan 77 respondent bank xizmatlaridan foydalanishda foizlar omilini muhimligini ko'rsatishgan, fikrimizcha, bank xizmatlari marketingini har qanday vositasida foizlar asosiy maqsad bo'lishi talab etiladi.

Marketingda reklama qilishning bir nechta asosiy vositalari keng qo'llaniladi xususan, bank xizmatlarini reklama qilishda hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanilmoqda.

5-jadval

So'rovnomada qatnashgan respondentlarning bank xizmat turlariga oid xabar va takliflar bo'yicha reklamalar turlari bo'yicha ma'lumot (2025 yil holatiga ko'ra)²⁸

Bank xizmat turlariga oid xabar va takliflar bo'yicha reklamalarni qanday turlari	Jinsingiz		
	Ayol	Erkak	Umumiy
Ashyoviy tovar bezagidagi reklama	1	0	1
Bank mobil ilovasi, internet portallar	18	24	42
Bosma reklama (gazeta, jurnal, buklet)	1	0	1
Ijtimoiy messendjerlar (Telegram, Watsapp)	14	19	33
Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Twitter, Instagram)	25	34	59
Mobil marketing reklamasi (Sms, mms)	5	8	13
Radio, televideniye reklamasi	6	2	8
Transport vositalaridagi reklamalar	2	3	5
Video portallar (You tube, My tube)	5	9	14
Total	77	99	176

So'rovnomada qatnashgan respondentlardan 59 kishi bank xizmat turlariga oid xabar va takliflar bo'yicha reklamalarni ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, Facebook, Twitter, Instagramdan olishi ma'lum bo'ldi.

Bank mobil ilovasi, internet portallari orqali bank xizmat turlariga oid xabar va takliflar bo'yicha reklamalarni 176 respondentdan 42 tasi, ya'ni foiz hisobida 24 % kuzatib borishi aniqlandi.

Bu esa o'z navbatida hozirgi kunda bank xizmatlari bo'yicha reklamalar ko'proq raqamli texnologiyalar ta'sirida yetkazilinayotganligi oydinlashdi, marketologlardan mazkur segmentda doimiy faollik talab qilinishi tabiiy hol sifatida qaralishi, SMM xizmatlari ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Banklar mijozlarga 24/7 xizmat ko'rsatishni tashkil qilishlari, shuningdek, tezkor va samarali xizmatlar yaratishlari zarur. Mijozlar bilan doimiy aloqada bo'lish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va ularga eng yaxshi yechimlarni taklif qilish

²⁸ To'plangan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

muvaffaqiyatli marketingning asosiy qismidir.

Feedback tizimlarini joriy etish orqali mijozlarning fikrini muntazam ravishda olish va xizmat sifatini doimiy ravishda yaxshilash zarur. Bu bankning mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarini mustahkamlaydi va ularning ishonchini oshiradi.

Banklar o'z reklama kompaniyalarini faqat raqamli vositalarga qaratmasdan, balki ommaviy reklama vositalari va mahalliy tadbirlarda ishtirok etishga ham e'tibor qaratishlari kerak. Ommaviy reklama orqali banklar o'z xizmatlarini keng auditoriyaga taqdim etishlari mumkin.

Televizor, radio va gazetalar orqali bank xizmatlarini kengroq targ'ib qilish va yangi mijozlarni jalb qilish mumkin. Shuningdek, banklar mahalliy festivallarda, sport tadbirlarida va boshqa jamiyat faoliyatlarida ishtirok etishlari, mijozlar bilan bevosita aloqada bo'lishlari zarur.

Banklar, shuningdek, sponsorlash va xayriya tadbirlarida faol ishtirok etish orqali o'z brendini ijobiy nuqtayi nazardan ko'rsatishlari mumkin.

Raqamli marketing tizimini takomillashtirishda yuqoridagi model bank xizmatlari bozoridagi mijoz xatti-harakatlarini aniqlash va ularni maqsadli segmentlarga ajratishning nazariy asosini tashkil etadi. Klasterlash jarayonida mijozlarning demografik, xulqiy va raqamli faollik ma'lumotlari o'zaro bog'langan ko'p o'lchovli vektorlar sifatida tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar (masalan, K-means yoki iyerarxik klasterlash) orqali shakllantirilgan segmentlar har bir mijoz toifasiga mos individual marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tarzda, bank xizmatlarida raqamli vositalar (ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilova, onlayn reklama)ning nisbiy ta'siri aniq modellashtiriladi va bank marketingining umumiy samaradorligi oshiriladi. Ushbu modelning amaliy tatbiqi "O'zmilliybank" AJ misolida tasdiqlanib, mijoz profillashtirish aniqligini 35-40 foizgacha oshirgani, natijada marketing xizmatlaridan foydalanish samaradorligi 17,4 foizga ko'tarilganligi bilan asoslanadi.

